

BIZNING_FAXRIMIZ



BIZNING_FAXRIMIZ

17 yoshida "Turkish Open"da kumush medalini qo'lga kiritgan Najmiddin Qosimxojiev bilan suhbat

"Turkish Open" xalqaro musobaqasida ishtirok etib, kumush medaliga ega chiqqan Termiz shahar 13-umumiy o'rta ta'lim maktabi o'quvchisi 17 yoshli Najmiddin Qosimxojiev O'zbekiston taekwondo WT assotsiatsiyasi matbuot xizmatiga intervyu berdi.

"2004 yil 28 avgust kuni tug'ilganman, taekwondo sport turiga yoshligimdan qiziqqanman, birinchi murabbiyim Sobir Nazaraliev qo'l ostida shug'ullanib, katta bo'ldim.

"Turkish Open" musobaqasi men uchun kattalar o'rtasidagi ilk xalqaro musobaqa bo'ldi. Menga ishonch bildirgan terma jamoa murabbiylar shtabiga rahmat aytaman. Mana shu musobaqada sovrindor bo'lganimdan juda xursandman. Turnir davomida jami 6ta jang qildim, oxirgi uchta bahsni koreyaliklarga qarshi o'tkazdim. Barchasining yoshi mendan katta edi. Finalda menga ozgina tajriba yetishmadi deb o'ylayman,

xudo xohlasa keyingi musobaqalarda albatta kumush medalimni oltinga

o'zgartiraman! , - deydi Najmiddin Qosimxojiev.

